

MAHSULOT SIFATINI TA'MINLASHDA BOSHQARUV TIZIMINING
XALQARO STANDARTLAR TALABI ASOSIDA TO'G'RI
YO'LGA QO'YILGANLIGI

Sotvoldiyeva N.S.

Andijon mashinasozlik instituti assistenti

Abdurashidov Kamoliddin Baxtiyorjon o'g'li

Andijon mashinasozlik instituti talabasi

Tel: +998 97 975 60 03

Email: kabdurashidov391@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Mahsulot sifatini ta'minlashda xalqaro standartlarning ahamiyati” mavzusida ko'rsatmalar berilgan. Bu jarayonda mahsulotlar sifatini ta'minlash uchun ISO 9000 seriyadagi xalqaro standartlar oilasining roli, mahsulotga ta'sir etuvchi omillar va ularni bartaraf etish yo'llari, mamlakatimiz rahbarining ushbu sohani rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari haqida batafsil fikr va mulohazalar o'rganilgan.

Kalit so'zlar: mahsulot sifati, standart, mahsulot, xom ashyo, sifat tizimi, omillar menejment, standartlashtirish.

Kirish qismi: Mahsulot sifati – iste'molchilar ehtiyojlarini qondirish qobiliyatiga ega bo'lgan xususiyatlarni o'z ichiga oladi va mahsulotni kamchilik va nuqsonlaridan holi qilish uchun o'zgartirish orqali mijozlarning ehtiyojlarini ta'minlaydi.

Mahsulot sifati asosan quyidagi omillarga bog'liq bo'ladi[1]:

- Mahsulot tayyorlash uchun ishlatiladigan xom ashyo turi;
- Turli ishlab chiqarish – texnologiyalar qanchalik yaxshi joriy qilinganligi;
- Ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi ishchi kuchining malakasi va tajribasi;
- Energetika va suv ta'minoti, transport kabi ishlab chiqarish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlarning mavjudligi.

Mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi omillarni 4 guruhga ajratish mumkin[1]:
– Texnikaviy omillar – bunday omillarga uskunalar jixozlash asboblari, nazorat vositalari va texnikaviy hujjatlarning holati, dastlabki materiallar, yarimfabrikatlarning sifati va shunga o'xshashlar kiradi.

–Tashkiliy omillar – bunday omillarga rejalik bir maromda ishlash, texnikaviy xizmat va uskunalar ta'minlash materiallar, komplektlanuvchi buyumlar jihozlanishi, asboblarni texnikaviy hujjatlar va nazorat vositalari bilan

ta'minlanganligi, ishlab chiqarish madaniyati, mexnatni ilmiy asosda tashkil etish, ovqatlanish va ish vaqtida dam olishni tashkil etish jarayonlari kiradi.

–Iqtisodiy omillar – bunday omillarga mexnatga pul to‘lash shakllari, oylik maoshning miqdori yuqori sifatli mahsulotni va ishni moddiy rag‘batlantirish, mahsulotning yaroqsizligi uchun xodimlarni oylik maoshlaridan ushlab qolish holatlari va mahsulotni baholash bosqichlari kiradi.

–Ijtimoiy omillar – bunday omillarga kadrlarni tayyorlash, ijodkorlik va ixtirochilikni tashkil etish, turmush sharoitlari o‘zaro munosabatlar, jamoadagi psixologik iqlim va tarbiyaviy ishlar kiradi.

–**Samaradorlik:** Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohatlar natijasida respublikamizning ichki bozorlarida tovar va xizmatlarning erkin aylanishi va bozor mexanizmlaridan foydalanish uchun kerakli sharoitlar shakllantirildi, bozor infrastrukturasini va raqobat muhiti yaratildi. Shu sababli ishlab chiqarish madaniyati hamda mahsulot sifati va xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ishlab chiqaruvchilar va boshqa tovar yetkazib beruvchilarning ham ma'suliyatlari oshib bormoqda. Bundan tashqari respublikamiz milliy korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari va xizmatlari bilan tashqi bozorga chiqishi uchun ham qulay imkoniyatlar yaratilmoqda. Ma'lumki bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish va ishlab chiqarilgan mahsulot bilan tashqi bozorda raqobatni ta'minlash, ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yanada yaxshilash va korxonada ko'proq foyda olishni ta'minlaydigan sifat tizimini yaratishga imkoniyat yaratib beradi. Bunday sifat tizimlarini yaratishda ISO 9001 seriyali xalqaro standartning roli juda katta ahamiyatga ega. Chunki barcha rivojlangan mamlakatlarda ISO 9001 seriyali xalqaro standartlari ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishni tashkil etishda ajralmas qism, tashqi bozor eshigini ochuvchi kalit sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari respublikamizda ISO 9000 seriyali xalqaro standartlar talablari asosida milliy korxonalar sifatini boshqarish tizimlarini amalga oshirish va ulardan samarali foydalanish, yuqori sifatli, inson hayoti uchun zararsiz mahsulot va xizmatlar yaratish, ularning tashqi bozorda chet mamlakatlarda ishlab chiqarilgan o'xshash mahsulotlar bilan raqobatda qatnashish va mahsulotni import qilinadigan mamlakatlar hududlarida sertifikatlashtirish va standartlashtirish bilan bog'liq bo'lgan ayrim texnik to'siqlarni kamayishiga imkon yaratadi. Yana shu narsani ta'kidlash kerakki, ISO 9000 xalqaro standarti oilasiga kiruvchi standartlarning joriy etilishi birgina ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini yaxshilab va uning xavfsizligini ta'minlab qolmasdan, balki ular universal harakterga ega bo'lganligi sababli, ularni har qanday ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida ham qo'llash mumkin. Respublikamizning ishlab chiqarish korxonalarida ISO 9001 xalqaro standarti bazasida sifatni boshqarish tizimlarini ishlab chiqish va joriy etish mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun mahsulotini

eksporti jarayonlarida ko‘plab qulayliklarni yaratadi. ISO 9001 xalqaro standarti bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining barqaror faoliyat ko‘rsatishi va rivojlanishi uchun ham ma‘lum darajada foyda olish garovi hisoblanadi.

Mahsulot sifatini ta‘minlashda xalqaro standartlashtirishning maqsadlari[2]:

–Turli mamlakatlarda ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati darajasining yaxshilanishi;

–Murakkab mahsulotlar elementlarining o‘zaro almashinishini ta‘minlash;

–Xalqaro savdoni rivojlantirish;

–Ilmiy-texnikaviy ma‘lumotlarning o‘zaro almashinuviga ko‘maklashish va ilmiy-texnik taraqqiyotni tezlashtirish;

–Mahsulot, xom ashyo, materiallar, yarim tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlarning texnik darajasi va sifatiga, shuningdek, mahsulotni loyihalash va ishlab chiqarish sohasidagi normalarni, talablarni va usullarni joriy etishni jadallashtirishga imkon berish, yuqori sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishning ilg‘or usullari va turlari, markalari va o‘lchamlarining mantiqsiz xilma-xilligini yo‘q qilish;

–Ishlab chiqarish ixtisoslashuvining eng muhim sharti sifatida sanoat mahsulotlarini birlashtirish va birlashtirishni rivojlantirish;

–Ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalashtirish va avtomatlashtirish, o‘zaro almashinuv darajasini oshirish, mahsulotlardan foydalanish va ta‘mirlash samaradorligini tashkil etish;

–Mamlakatda o‘lchovlarning bir xilligi va ishonchligini ta‘minlash, fizik kattaliklar birligining davlat standartlarini, shuningdek eng yuqori aniqlikdagi usullar va o‘lchov vositalarini yaratish va takomillashtirish;

–Texnik va iqtisodiy ma‘lumotlarning yagona hujjatlashtirish tizimlarini tasniflash va kodlash tizimlarini ishlab chiqish;

–Fan, texnika va iqtisodiyot tarmoqlarining eng muhim sohalarida yagona atamalar va belgilashlarni qabul qilish;

–Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishni yaxshilash sohasida mehnat xavfsizligi standartlari tizimini, standartlar tizimini shakllantirish;

–Tashqi savdo, madaniy, ilmiy va texnik aloqalar uchun qulay sharoitlar yaratish.

Muhokama va natijalar


Bu ISO 9001 xalqaro standartni joriy qilinishida korxonada quyidagi afzalliklarga ega bo‘ladi:



–Eng avvalo mijozlarning shikoyatlarini kamaytiradi va mijozning qoniqishini oshiradi;

–Mijozlarning taxminlarini birinchi o‘ringa qo‘yadi, shu bilan birgalikda mahsulotni yanada yaxshi dizaynini ta‘minlaydi;

- Yaxshi dizaynni amalga oshirish bilan tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi;
- Sifat tizimiga yondashish orqali past sifatli xarajatlarni minimallashtiradi;
- Har qanday jarayondagi muammolarni bartaraf qiladi;
- Ma’lumotlar oqimini tezlashtiradi;
- Jarayonlarni aniqlash, tashkilotni yetkazib beruvchilarini tanlash, kuzatib borish va baholash obyektlarini osonlashtiradi;
- Jarayonlarning identifikatsiyasi bilan tashkilot ichida vakolat va majburiyatlarning taqsimlanishiga yordam beradi;
- Qoidalarni o’rnatish bilan samarali boshqaruvga imkon beradi;
- Xodimlarni ish jarayonlariga jalb qilish ishtiyoqlarini amalga oshiradi;
- Har bir sohada doimiy yaxshilanishni rivojlantirish orqali xodimlarning sifatini oshiradi;
- Bo‘limlar orasidagi muammolarga tizimli yondashish samaradorligini oshiradi;
- Ushbu hujjatni joriy qilish orqali tashkilot o‘z mahsulotini Jahon bozorida raqobatbardoshligini ta’minlashdan iborat.

Demak korxonaga ISO 9001 Sifatni boshqarish tizimini joriy qilsak korxonaning boshqaruv tizimi yuqori darajada rivojlanadi ekan.





ISO 9001 Standarti bo'yicha Sertifikatlangan korxonalar soni[3]

Korxonada boshqaruv tizimini yaxshilash uchun eng avvalo xodimlarni layoqatligini oshirishimiz kerak. Buning uchun xodimlarni turli xil kurslariga jalb qilish nazarda tutiladi. Bunday kurslar quyidagilarda yaqqol namoyon bo'lishi mumkin:

1. **Kasbiy rivojlanish kurslari:** Bu kurslar xodimlarning mahoratini yaxshilash va sohadagi yangiliklardan xabardor bo'lishlarini ta'minlashga qaratilgan. Bu jarayonda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini singdirish va xodimlarning qobiliyatini rivojlantirish hamda o'z ustida mustaqil ishlash va kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

2. **Til kurslari:** Xalqaro biznes yoki ish muhitida xodimlarning til mahoratini oshirish uchun ingliz tili va boshqa chet tillari bo'yicha kurslarni tashkil etish. Xodimlarni til kurslariga jalb qilish orqali tashkilotning xalqaro miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish, xalqaro hamkorlikni yaxshilash va xodimlarning shaxsiy rivojlanishiga hissa qo'shish imkoniyatini beradi.

3. **Texnik va Texnologik ta'lim:** Bu jarayon dasturlari bo'yicha xodimlarni yangi texnologiyalar va dasturlarni o'rganishga qaratilgan kurslar, masalan tasturiy ta'minotdan foydalanish, kodlash, ma'lumotlar tahlili, loyiha boshqaruvi dasturlari uchun treninglar o'tkazish va yangi texnologiyalar tanishtirish kerak bo'ladi.

Korxonalar ISO 9001 Xalqaro standarti talablari bo'yicha sifat menejmenti tizimini joriy etish va sertifikatlashi uchun zarur bo'lgan sabablarning ko'pligini inobatga olib, ularni tartibga solish va tasniflash variantlarini ko'rib chiqaylik.

Sabab bo'luvchi omillarni ichki va tashqi omillarga ajratish mumkin.

Ichki sabablar korxonaning samarasi va mahsuldorligini yaxshilash bilan bog'liq bo'ladi. Bunday omillarga mahsulot sifatini yaxshilash, ichki jarayonlarni jadallashtirish, harajatlarni kamaytirish, xodimlar bilan munosabatlarni yaxshilash, axborot almashuvi va tahlili tartiblarini o'rnatish, "Total quality management" konsepsiyasini amalga oshirishga tayyorgarlik jarayonlarini misol keltirishimiz mumkin.

Tashqi sabablar korxonaga atrofidagi biznes-muhitga (mijozlar, ta'minotchilar, davlat organlari) bo'lgan ta'sirga bog'liq. Bunda, Sifat menejmenti tizimi uchun rasman tasdiqlangan hujjat, ya'ni, sertifikat ana shu ta'sir vositasidir.

Bularga korporativ imidjni yaxshilash, eksport faoliyatini yengillashtirish ham ichki, ham tashqi bozordagi iste'molchilarning talablarini qondirishi, davlat organlari bilan o'zaro munosabatlarni yaxshilash, jamiyat bilan ishonchli munosabatlarni o'rnatish, raqiblardan ajralib turish, raqobatda ustunlikka ega bo'lish va boshqalarni kiritishimiz mumkin.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 17-may kuni texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya milliy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari taqdimoti bilan tanishdi. Jumladan quyidagi mulohazalarni bayon qildi[5]:

–Mamlakatimizda sanoatni rivojlantirish, mahsulotlar sifatini oshirish, jahon bozorlariga chiqish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Xususan, yurtimizda mavjud 30000 ga yaqin standartning 19000 tasi xalqaro normalar bilan uyg'unlashtirildi va xalqaro standartlar reyestri shakllantirildi.

–Eskirgan, bozor iqtisodiyoti mexanizmlariga salbiy ta'sir ko'rsatadigan 5600 ta standart amaliyotdan chiqarildi, 3500 tasi zamon talablari asosida takomillashtirildi. Xalqaro analoglarga muvofiq qo'shimcha 26 ta texnik reglament ishlab chiqildi.

–Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari yetishtiruvchi 260 ta korxonada “Global G.A.P” hamda “Organik” standartlari asosida sifat tizimi joriy etildi va ular xalqaro darajada sertifikatlashtirildi.

–32 ta to‘qimachilik korxonasi “OEKO–TEX” standarti asosida sertifikatlashtirildi. 21 ta korxonada Yevropa ittifoqida talab etiladigan “SE” markirovkasini tasdiqlovchi sertifikat oldi.

–Davlatimiz rahbari mutasaddilarga sanitariya–epidemiologik xulosa olinadigan mahsulotlar ro‘yhatini maqbullashtirish, qo‘shimcha muvofiqlik sertifikati talabini bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish bo‘yicha topshiriq berdi.

–Import mahsulotlar sinovi bojxona rasmiylashtiruvchi jarayonida amalga oshirildi.

–Sohani takomillashtirishda jahon tajribasidan foydalanilmoqda. Jumladan. Yevropada faqatgina 28 turdagi xavfi yuqori bo‘lgan

mahsulot majburiy sertifikatlanadi, qolgan barcha turdagi tovarlar muvofiqligi deklaratsiyalash orqali tasdiqlanadi.

–Xalqaro talablar bilan uyg‘unlashmagan 11000 ta milliy standart o‘rniga xalqaro standartlarni qabul qilish hamda 2023 yildan barcha korxonalarni ushbu standartlarga o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar berildi.

–“O‘zstandart” agentligi tizimidagi 20 ta sinov laboratoriyasi faoliyatini xalqaro darajada tashkil etib, birinchi navbatda oziq–ovqat, qishloq xo‘jaligi, elektr texnikasi, yengil sanoat, gigiyena va parfyumeriya mahsulotlari hamda qurilish materiallarining xalqaro standartlarga muvofiqligini baholashni yo‘lga qo‘yish muhimligi ta’kidlandi.

–Jahon savdo tashkilotining savdodagi texnik to‘siqlar hamda sanitariya va fitosanitariya choralari to‘g‘risidagi bitimlari normalaridan kelib chiqib, ushbu sohalarga ma’sul idoralarning vakolatlarini aniq belgilash vazifasi qo‘yildi.

Xulosa:

Korxonalarda mahsulotlar sifatli ishlab chiqarilishi uchun eng avvalo tashkilot jarayonga ISO 9000 oilasidagi xalqaro sifat menejmenti tizimini joriy qilishi kerak. Chunki bu standart mahsulot ishlab chiqarish jarayonida mahsulotning sifatini hamda mahsulot ishlab chiqarish jarayonini sifatli bo‘lishini ta’minlaydi. ISO 9000 xalqaro standartining sertifikatlari orqali mahsulotlar jahon bozorlariga eksport qilinishi mumkin. Chunki tashkilot mahsulotini chetga eksport qilishi uchun eng avvalo mahsulotini xalqaro standartlar orqali sertifikatlashi kerak. Bundan tashqari korxonada mahsulot sifatini boshqarish jarayonida sifat nazorati alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Chunki ishlab chiqarish samaradorligi ko‘p jihatdan sifat nazorati, uning texnik jihozlanishi va tashkil etilishining mukammallik darajasiga bog‘liq bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sotvoldiyeva Nasibaxon. (2022). QUALITY IN EXPORTING KNITTED PRODUCTS. American journal of Interdisciplinary Research and Development, 9, 234-240. Retrieved from <https://ajird.journalspark.org/index.php/ajird/article/view/296>.
2. www.standart.uz– O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi sayti ma’lumotlari.
3. Ismatullayev P. R. va boshqalar. Metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarish. Toshkent, 2012-yil.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojatnomasi. Davlatimiz rahbarining texnik jihatdan tartibga solish, standartlashtirish, sertifikatlashtirish va metrologiya milliy tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari 2021-yil 17-may.